

ARUZDA FONETIK BIRLIKLARNING POETIK IMKONIYATLARI

Odinaxon TURSUNOVA*

Annotatsiya: Aruzshunoslik nafaqat adabiyotshunoslik sohasi sifatida, balki tilshunoslikning fonetik sathi doirasida, tovushlarning poetik imkoniyatlari sifatida ham o'rganilishi lozim. Zero, turkiy tillar tizimida ham aruzning muayyan qoida va qoliplari mavjudki, zamonaviy ijodkorlar ijodida shunday go'zal namunalarni ko'ramiz. Aruz vazni tuzilish jihatidan fonetik uyg'unlikka asoslanganligi tufayli fonopoetik qimmat kasb etadi. Bo'g'inlar cho'ziq-qisqaligining, hijolarning sifat belgilari, ruknning xususiyatlari matnga badiiy estetik vazifa yuklaydi. Hijo aruz vaznidagi she'rning shakllanishida material vazifasini bajaribgina qolmay, uning turi, vazni, bahrlarining o'zgarishiga olib keluvchi birlik hamdir. Hijoning shakllanishida esa tovushlar muhim tashkil etuvchi birlik vazifasini bajaradi. Demak, tovush tilning material birligi, undagi akustik jilolanish poetik nutqning muhim xususiyatidir.

Kalit So'Zlar: *Aruz, Pauza, Ohang, Ritm, Temp.*

Poetic Possibilities of Phonetic Units in Aruz

Abstract: Dream studies should be studied not only as a field of literary studies, but also within the framework of the phonetic level of linguistics, as poetic possibilities of sounds. After all, there are certain rules and patterns of aruz in the Turkic language system, which we see such beautiful examples in the works of modern artists. Aruz weight is phonopoetically valuable due to the fact that it is based on phonetic harmony in terms of structure. The long-shortness of the syllables, the qualitative signs of the syllables, the characteristics of the column impose an artistic and aesthetic task on the text. A hyphen not only plays the role of material in the formation of a poem of aruz weight, but is also a unit that leads to changes in its type, weight, and character. In the formation of a syllable, sounds play the role of an important unit. So, the sound is the material unit of the language, the acoustic polishing in it is an important feature of the poetic speech.

Key Words: *Aruz, Pause, Intonation Period, Intonation Fraction, Rhythm.*

Aruz she'r tizimi xususida to'xtalishdan oldin "aruz" atamasi va uning o'rganilish tarixi haqida qisqacha fikr bildirish zarur.

Aruz – arablarning chodir uyini ushlab turuvchi ustunning nomi, aruz vaznida ijod qiluvchilar har qaysi baytning birinchi misrasi oxiridagi ruknni ham «aruz» deb ataydilar, misraning mana shu oxirgi bo'lagi aytilganida, she'rning qanday vaznda yozilganligi ma'lum bo'ladi (Tabriziy, 1959: 26).

Aruz – arab poeziyasining she'riy vazni. Aruzdagi she'rning birinchi namunalari V asrga taalluqli. VIII asr ikkinchi yarmiga kelib aruz ilmiy asoslangan fanga, keyinroq tugal qismga aylandi. Aruz vazni ilk bora arab she'riyatida vujudga keladi, so'ngra u fors-tojik va turkiy xalqlar mumtoz poeziyasining ham asosiy vazn turi sifatida shakllandi, takomillashdi (Krachkovskiy, 1957: 313).

Aruz tizimi haqidagi ilk tadqiqot VIII asrda arab tilshunos va musiqashunos olimi Halil ibn Ahmad al-Farohidiy al-Basriy qalamiga mansub bo'lib "Al-aruz" deb ataladi. Halil ibn Ahmad islomdan ilgari V-VII va o'z davrigacha bo'lgan VII –VIII asrlardagi shoirlarning asarlarini o'qib, o'rganib, tahlil etib aruz bahrlari haqida o'z she'riy nazariyasiga asos soldi (Ziyovuddinova, 2001: 7).

Aruz qadimiy she'r tizimi bo'lib, uning ildizlari arab she'riyatiga borib taqaladi. Aruzni lirik janr yaratuvchi tizim sifatidagi tadqiqi ham qadimdan boshlangan. "Halil ibn Ahmad rahmatullohki, bu fanning voziidir, chun arab ermish va aning yaqinida bir vodiy ermishki, ani "Aruz" derlar ermish va ul vodiyda a'rob uylarin tikib, jilva berib, bahoga kiyururlar ermish" (Hojiahmedov, 1999: 121) – deya Alisher Navoiy aruz atamasining ma'nosi haqida ma'lumot beradi.

E.Talabovning yozishicha: "arab aruzining kvantitativlik mohiyati tildagi mavjud bo'g'inlarning miqdorida belgilab qo'yilgan imkoniyatlaridan foydalanish hisobiga qurilgan" (Talabov, 2003: 33).

* PhD. Dotsent, Andijon davlat universiteti, O'zbekiston, e-mail: odinaxontursunova82@gmail.com

Alisher Navoiy esa “aruz fanikim, nazm avzonining mezonidur, sharif fandur. Nevchunkim nazm ilmining rutbasi bag‘oyat biyik rutbadur. Andoqki, haq subhanohu va taoloning kalomi majidida ko‘p yerda nazm voqe’ bo‘lubturki, aruz qavoidi bila rostdur. Ul jumladin biri bu oyatdurkim:

Lan ta-no-lu / bir-ra hat-to / tun fi-qu (“Oli Imron” surasi, 92-oyat) ramali musaddasi mahzuf (*fo ‘ilotun, fo ‘ilotun, fo ‘ilun*) voqe’ bo‘lubtur” (Navoiy, 1967: 137), – deydi.

Albatta, aruz tizimi Qur‘oni karim tili orqali kirib kelgan va musiqiylik jihatidan boshqa she‘r shakllaridan yuqori darajada turishi uning ulug‘lanishiga sabab bo‘ladi.

Alisher Navoiyning “Me‘zon ul-avzon”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Muxtasar” kabi asarlarida, o‘sha davrdayoq, aruz nazariyasining mukammal tadqiqi yaratilganligidan dalolat beradi. Ulardan so‘ng ham bir necha adabiyotshunoslar aruz nazariyasi ustida tadqiqotlar olib bordilar (Abdullayev, 1963: 297).

Aruz tizimi qoidalariga e‘tibor berilsa, u dastlab hijolarga ajraladi. Hijolar esa ma‘lum tovushlardan yoki tovush birikmalaridan tashkil topadi. XX asrdan, xususan, Fitratdan boshlab o‘zbek aruzshunosligida eng kichik ritmik bo‘lak sifatida hijo ko‘rsatila boshlandiki, bu aruz ilmini o‘zbek tili tabiatiga moslash zaruratining hosilasidir (Quronov, 2010: 35). Hijolarning ma‘lum tartibda, kattaroq bo‘laklarga birlashishi ruknni keltirib chiqaradi, ruknlarning ma‘lum tartibda takrorlanishidan esa bahr yuzaga keladi va bu aniq intonatsion moslikka asoslanadi. Hijo va ruknlarning mosligi esa bir maromdagi ritmik holatni yuzaga keltiradi.

Shu ritmik, intonatsion davrlar misralarni tashkil qiladi. Va bu ohang hamda to‘xtam (pauza)ning musiqiylik hosil qilishdagi rolini kuchaytiradi.

<i>Yu-</i>	<i>rar-</i>	<i>man</i>	<i>ko‘z</i>	<i>tu-</i>	<i>tib</i>	<i>do-</i>	<i>Im</i>	<i>sa-</i>	<i>ning</i>	<i>ish-</i>	<i>qing</i>	<i>bi-</i>	<i>lan</i>	<i>hay-</i>	<i>ron</i>
<i>A-</i>	<i>Mon</i>	<i>bo‘l-</i>	<i>sam</i>	<i>ko‘-</i>	<i>rar-</i>	<i>man</i>	<i>mun-</i>	<i>cha</i>	<i>sar-</i>	<i>son</i>	<i>ay-</i>	<i>la-</i>	<i>sang</i>	<i>may-</i>	<i>ling</i>
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–
Ma fo iy lun				ma fo iy lun				ma fo iy lun				ma fo iy lun			

Jadval 1. Ajab Zamona (Zavqiy, 2003: 34).

Ushbu baytning birinchi misrasi 41 ta, ikkinchi misrasi 41 ta tovushdan iborat bo‘lib, bulardan 32 ta unli va shuncha hijo mavjud. Hijolarning muayyan tartibdagi takrori esa ritmik ohangni yuzaga keltirgan. Misoldan ko‘rinib turibdiki, i, e, a, o‘ va u unli tovushlari bilan tugagan hijolar qisqa, o unlisi bilan va undosh tovushlar bilan tugagan hijolar cho‘ziq talaffuz etilgan. SHu sababli, ochiq va yopiq bo‘g‘inlar (*tu* “V” -*tib* “–”) , qisqa va cho‘ziq unlilar (*do* “–” -*im* “–”; *bi* “V” -*lan* “–”) aruz vaznida muhim sanaladi. Ohangdorlik, musiqiylik, garmoniya va ritmik izchillik ham tovushlarning uyg‘unlashuvi hamda moslashuvi orqali yuzaga chiqadi. Hazaj bahridagi mazkur she‘rning ma‘lum ritmik-intonatsion shakllanishi o‘ziga xos ohangdorligi, mazmun mukammalligi bilan ajralib turadi va hijo, rukn bunda muhim fonopoetik birliklardir. Ruknining holatidan yuqoridagi misolning bahri aniqlanadi, ya‘ni mafoiylunning sakkiz marotaba takrorlanishi hamda oxirigacha hech qanday zihofga uchramagani, *hazaji musammani solim* tarzida ifodalanadi.

Poetik nutqni aruzning ma‘lum qolipiga tushirish uchun mazmun sustlashmasligi kerak, balki aruz she‘r tizimi mazmun mukammalligi bilan alohida ahamiyatga ega bo‘lishi zarur.

Aruz tizimidagi poetik nutqda, ayniqsa, ko‘p ma‘noli so‘zlarning variantlaridan foydalanish bilan birga tovush orttirilishi, o‘zgarishi, tovush tushishi, almashinishi yoki ikkilantirilishi, unlini cho‘zish kabi hodisalardan foydalanish mumkin.

<i>Ta’-</i>	<i>Ni</i>	<i>za-</i>	<i>mon-</i>	<i>lar</i>	<i>o‘q-</i>	<i>la-</i>	<i>ri</i>	<i>ko‘k-</i>	<i>si-</i>	<i>mi-</i>	<i>z(n)i</i>	<i>ha-</i>	<i>daf</i>	<i>qi-</i>	<i>Lur</i>
-------------	-----------	------------	-------------	------------	-------------	------------	-----------	--------------	------------	------------	--------------	------------	------------	------------	------------

<i>Kel-</i>	<i>ma-</i> (o)	<i>gi-</i> (g'i)	<i>din</i> (dan)	<i>ni-</i>	<i>sho-</i>	<i>na</i>	<i>yo'q</i>	<i>kel-</i>	<i>ma-</i>	<i>sa</i>	<i>kel-</i>	<i>ma-</i>	<i>sun</i> (sin)	<i>ne-</i>	<i>Tay</i>
-------------	-------------------	---------------------	---------------------	------------	-------------	-----------	-------------	-------------	------------	-----------	-------------	------------	---------------------	------------	------------

Jadval 2. Ajab Zamona (Zavqiy, 2003: 53).

Misolda *ko'ksimiz(n)i*, *kelmagidin*, *kelmasun* kabi variantlarning qo'llanilishida tovushlar bilan bog'liq hodisalar namoyon bo'ladi.

<i>Ja-</i>	<i>fo-</i>	<i>u</i> (va)	<i>jav-</i>	<i>r i-</i>	<i>la</i>	<i>zul-</i>	<i>Ming</i>	<i>me</i> -	<i>nga</i>	<i>be-</i>	<i>dod-</i>	<i>lar</i>	<i>qil-</i>	<i>di</i>
<i>Ka</i> -	<i>rash-</i>	<i>man</i> g	<i>ko'r-</i>	<i>sa</i>	<i>qat-</i>	<i>I ay-</i>	<i>Lar</i>	<i>de-</i>	<i>mas</i>	<i>Bu</i>	<i>dod-</i>	<i>ho-</i>	<i>him-</i>	<i>dur</i>

Jadval 3. Mehribonim Qaydasan (Mashrab, 1990: 190).

Bu misoldagi shakl va mazmun bir-biriga juda uyqash kelgan, shakldagi o'zgarish *jafou*, *javr*, *ila* kabilar aruz tizimi talabi va o'sha davr til xususiyatlarining qonuniyatlari bilan ayrim fonetik hodisalarning kelishi kuzatiladi. SHunday so'zlar ham borki, ularning turli fonetik variantlari ishlatilishi mumkin va bunda hech qanday mazmuniy o'zgarish yuz bermaydi, chunki o'sha davr til shakllari bo'yicha to'g'ri keladi va hozirda ham poetik matn tarkibida faol uchraydi.

Ul, *shul*, *u*, *o'shal*, *shu*; *nima uchun*, *nevchuk*, *nechun*, *nechuk*, *ne uchun*, *na chun*; *agar*, *magar*, *gar*, *ar*, *vagar*; *bilan*, *bila*, *ila*, *la*, *birga*, *birlan*, *birgalikda*; *uchun*, *chun*, *chu*, *on chun*; *misoli*, *misli*, *bamisoli*, *bamisli*, *biaynih*; *lekin*, *lek*, *vale*, *valek*, *val* kabi variantlarni misralarda uchratish mumkin.

Aruzda ma'no go'zalligi bilan bir qatorda vazn mukammalligi ham muhim hisoblanadi. Mazmun va shaklning mutanosib bo'lishi g'azalning umri uzunligini ta'minlaydi.

Shakliy xususiyatlar esa fonetik hodisalarga bog'liq bo'lib, ma'noga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Aksincha, fonopoetik xususiyatlar vaznning musiqiylikini, ta'sirchanligini oshiradi hamda matnga konnotativ ma'no yuklashi mumkin. Aruzda ayrim so'zlarda vaznga muvofiqlashgan tarzda tovushlar orttirilishi, tushishi yoki almashib kelishi holatlarining faolligi kuzatiladi:

<i>Maj-</i>	<i>nu-</i>	<i>n o'-</i>	<i>la</i>	<i>kez-</i>	<i>dim</i>	<i>ne-</i>	<i>Cha</i>	<i>yil-</i>	<i>dash-</i>	<i>Tu</i>	<i>bi-</i>	<i>yo-</i>	<i>bon</i>
<i>Lay-</i>	<i>li-</i>	<i>ni</i>	<i>so'-</i>	<i>rog'-</i>	<i>lab</i>	<i>yu-</i>	<i>ru-</i>	<i>dim</i>	<i>be</i>	<i>sa-</i>	<i>ru</i>	<i>sa-</i>	<i>mon</i>
-	-	V	V	-	-	V	V	-	-	V	V	-	-

Jadval 4. Mehribonim Qaydasan (Mashrab, 1990: 147).

Bu bayt 67 ta tovushdan iborat bo'lib, undan 28 tasi unli va bu 28 hijoni yuzaga keltirib, intonatsion butunlikni ta'minlaydi.

Mazkur misollarda tovushlarning matn qurshovidagi uyg'unlashishi (*yurudim*), vazn talabi bilan oldingi so'zning bir undoshi o'zidan keyingi so'zning unlisi bilan talaffuz etilishi (*Majnu no' la*), ruknlarga ajralishda esa so'zning tugalligiga emas, muayyan ritm va intonatsion izchillikka amal qilishi (*so' / rog' lab, dil / ni*), fonetik qurshovdagi undoshlarning ifodalanishiga qarab jarangsizning jaranglilashishi (*buzilmaz "s" mu*) aruz fonopoetikasini o'rganishni talab etadi. Misolda *o'la* so'zi (o'g'uz dialektiga xos sheva so'zi bo'lib, *o'l*-asos, *-a* ravishdosh shakllaridan tashkil topgan) *bo'lib*, *o'xshab* kabi bir necha ma'nolarni o'z ichiga qamrab olgan va siqiq ifodalagan. Sinxron jihatdan fonetik jihatdan tovush tushishi (b-b) va almashinishi (i-a) hodisalari yuz bergan bo'lishiga qaramay, vazn talabiga, poetik maqsadga muvofiq qo'llangan va natijada she'rning ta'sir doirasi kengaygan hamda shakliy variantlashuv (o'la-bo'lub) asosida ritmik-intonatsion mukammallikka erishilgan. Mumtoz

she'riyatdagi tovush almashinishlari tabiiy, o'sha davr nutqiy holatidan kelib chiqqan bo'lishi shubhasiz, biroq ayni paytda so'zlarning tovush tizimiga asoslansak, ikkinchi misradagi *so'roqlab so'zi so'rog'lab, yurgandim – yurudum* kabi fonetik o'zgarishlarga uchragan.

Ne	sav-	do-	lar	bosh-	g'a	sol-	ding	Bu	sav-	do-	Lar	oz	o'l-	maz-	mu
A-	gar	bir	dil-	ni	og'-	rit-	sang	yu-	zar	ka'-	Ba	bu-	zil-	maz-	mu
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–

Jadval 5. Mehribonim Qaydasan (Mashrab, 1990: 215).

Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, shakliy o'zgarish mazmunga aslo salbiy ta'sir etmagan, aksincha, mazmunning mantiqiy quvvatini oshirgan ham vazn talabiga moslik hosil qilib musiqiy ritmni yuzaga keltirgan.

Keyingi misradagi *bosha* so'zida jo'nalish kelishigi qo'shimchasining tarixiy varianti -a ning ifodalanishi, *o'lmasmu - o'l mazmu* tarzida tovush almashinishi ro'y bergan. Til tarixidan ma'lumki, -ar ko'plik, taxmin, chama, fe'l yasovchi, sifatdosh kabi omonimik qo'shimchadir. Bu misolda esa -ta, -lab son shakli hosil qiluvchi affiks tarzida qo'llanmoqda va bu vazn talabiga muvofiqdir, *buzilmasmu – buzulmazmu* (*o'g'uz dialekti unsuri fonetik variant sifatida kelgan*) so'zlari ham poetik maqsaddan kelib chiqib o'zgarishga uchragan.

“Aruzni tushunadigan, ammo barmoq vaznida irod qiluvchilar o'rtasida aruzda shakl juda siyiq, she'rni uning vazniga tushirguncha mazmunga putur yetadi degan fikr yuradi. Aslida aruzda shakl mazmundan ustun emas, aksincha shakl hatto mazmunga qurbon qilinadi, deyish ham mumkin” (A'zamov, 2006: 121). So'zlovchi qaysidir poetik maqsadda nutq irod etishi uchun, albatta, badiiy tasvir yaratuvchi, ta'sirchanlikni oshiruvchi u yoki bu vositalarning biridan foydalanadi. Unday vositalar esa lingvopoetik tadqiqot ob'ektidir. Zero, har qanday poetik nutq tildagi materiallar asosida boyib boradi va mazmundorligini saqlaydi. Aruz sistemasi ham til elementlari asosida ham mazmunan, ham shaklan boyib boradi. Shuning uchun aruzning fonetik xususiyatlarini tekshirish muhim sanaladi va uning tahlili fonopoetik soha doirasida tekshirildi.

Aruz fonetikasi juda murakkab va qiziq, shu bilan birga, vaznning imkoniyatlari ham keng. Fikrimizni misollar orqali ko'rsak, quyidagi she'rning ruknlarga ajralishi ham o'ziga xos ohang yaratadi:

G'o-	ra-	t et-	ding	ey	pa-	ri(y)	tan	mul-	ki-	Ni
Ko'r-	ma-	dim	o-	lam-	Da	san-	dek	tul-	ki-	ni
–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	V
Fo'	I	lo	tun	fo'	I	lo	tun	fo'	i	lu

Jadval 6. Ajab Zamona (Zavqiy, 2003: 35).

Hijo va ruknlarga ajralishida, ko'rinib turganidek, so'zning tugallanishi emas, ohangning ritmik ajralishiga asoslanmoqda g'ora/t etding, o/lam kabi.

Aruzda *shoh – shah, suv – su, niyat – niyyat, bo'lmoq – o'lmoq, oldida – olida, gahi – goho – gohida – goh – goh, gah – gah* kabi bir so'zni turli variantlarda ishlatilishi tabiiy me'yoriy holdir.

A-	Yo	do'-	zax	me-	ni	kuy-	Dur	ha-	lo-	yi	kuy-	ma-	sun	har-	giz
Ta-	mug'-	Din	ish	q o'-	ti	Pur	zo'r	a-	ning	zah-	Rin	yu-	tib	o't-	kum

<i>Ki</i>	<i>jo-</i>	<i>n ol-</i>	<i>g'u-</i>	<i>chi-</i>	<i>ni</i>	<i>ko'r-</i>	<i>Dum</i>	<i>de-</i>	<i>dim</i>	<i>ol-</i>	<i>g'il</i>	<i>bu</i>	<i>jo-</i>	<i>nim-</i>	<i>ni</i>
<i>A-</i>	<i>Jal</i>	<i>qoch-</i>	<i>di</i>	<i>u-</i>	<i>Rub</i>	<i>quv-</i>	<i>Lab</i>	<i>me-</i>	<i>n o-</i>	<i>ni</i>	<i>qo'r-</i>	<i>qi-</i>	<i>tib</i>	<i>o't-</i>	<i>tum</i>

Jadval 7. Mehribonim Qaydasan (Mashrab, 1990: 32).

Misolda fonetik qisqalik va cho'ziqlik belgisining mutanosibligi she'r musiqiyligini, ohangdorligi hamda ritmik pauzalar miqdorining bir xilligini ta'minlamoqda. Aruz nazariyasi bo'yicha grammatik shakllar ma'lum darajada o'zgarishini ko'p kuzatamiz, bundan tashqari, tarixiy grammatika nuqtai nazaridan bunday o'zgarishlar asoslidir. Chunki grammatik shakllarning tarixiy ko'rinishi shu kabi ifodalanadi: *-sin* buyruq shakli *-sun* tarzida; *-dir* kesimlik qo'shimchasi *-dur*, *-tur* shaklida qo'llangan, uning vazifasiga qarab kishilik yoki ko'rsatish olmoshi aniqlangani kabi, ularning barchasida fonetik hodisalar ham mazmunan, ham shaklan mukammal tarzda ifodalanadi.

Fonopoetika haqida gap borganda, dastlab aruz fonetikasi va barmoq sistemasidagi fonetik xususiyatlariga to'xtalish zarur. Fonetik birliklar yuqori sath birliklarini moddiy jihatdan shakllantiribgina qolmasdan, ularning badiiy-estetik funksiyasini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Fonetik birliklar (hijo, rukn, bo'g'in, turoq, ritm, ohang, vazn va boshqalar)ning bunday vazifasi she'r shaklining mukammal va go'zal bo'lishini ta'minlaydi. Shaklning benuqson bo'lishi esa g'azalning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglashga va sharhlashga yordam beradi. Chunki aruz fonetikasida tovushlarning bexato joylashishi rukn va hijolar ritmining tartibligini ta'minlaydi. Tovush orttirilishi, undosh ko'chishi, so'z oxiridagi qo'sh undoshning o'ta cho'ziq hijo tarzida kelishi, unilarning cho'ziq-qisqalik belgisi, ochiq va yopiq bo'g'inlarning ahamiyati kabi hodisalar, shubhasiz fonetik xususiyatlardir.

Umuman olganda, badiiy nutqda, xususan, she'riyatda tovushlarning emotsional-estetik funksiyasi yuqori darajada turadi. Aruz qadimiy she'r tizimi bo'lishiga qaramay, shu kungacha o'z qimmati va jozibasini yo'qotgani yo'q, aksincha uning nozik qirralari ilm ahllarini: adabiyotshunoslar, tilshunos va boshqa soha vakillarini yanada qiziqtirib kelmoqda (Fitrat, 1997: 28-35). Aruz nazariyasi xususida so'z yuritar ekanmiz, uning asosiy jihati fonetik qonuniyatlarga ham asoslanishini aytib o'tdik.

Fonetikadagi segmentlanish hodisasi, asos oxiridagi tovushlar (raviylar) qofiyasi, qo'shimchalardagi tovushlar ohangdoshligi, ritm (zarb), pauza (to'xtam), ohangni to'g'ri ajrata bilish, tovushlar mosligiga ko'ra almashinishi, tovush tushishi yoki orttirilishi (aksariyat she'rlarda shu holat yuqori) kabi hodisalar juda faol. Masalan, aruz vaznidagi she'rda ikki undosh so'z oxirida (misra oxirida emas!) birga kelsa, u holda o'ta cho'ziq hijo tarzida keladi. Misol, «Sab'ai sayyor» dan:

Dur - ni suftay- / la-moq a-ro / xak-kok

– V – – / V – V – / – –

Ko'p qi- lur sah / v bor e-sa / be-bok.

– V – – / V – V – / – –

Foilotun mafoilun fa'lun

Xafifi musaddasi mahbuni maqtu'

(Navoiy, 1995: 89).

Barmoq sistemasida ham fonetik xususiyat bo'rtib turganini sezish qiyin emas, ayniqsa, bo'g'inlar miqdori, intonatsion ritmik holat, pauza, tovushlar takrori, segmentlanish hodisasi kabilar poetik nutqning istalgan vaznida ko'rinadi, biroq bular ma'lum xususiyatlariga ko'ra vaznlararo bir-biridan quyidagicha farqlanadi :

1. Nutqning fonetik bo‘linishidagi kichik birlik hisoblangan bo‘g‘inlar har bir so‘zni alohida-alohida bo‘laklarga ajratadi:

Cho‘q-qi-dan bir tom-chi tosh yu-ma-la-sa,

Tog‘-ni qu-lat-gu-dek su-ron qi-la-di.

Ko‘-zing-dan bir tom-chi yosh yu-ma-la-sa

Tog‘-day yu-ra-gim-ni vay-ron qi-la-di.

(Vohidov, 1991: 34)

Hijolarga ajratganda esa birinchi qo‘llanayotgan so‘zning oxirgi tovushi (aksariyat, undoshi), agar vazn talab qilsa, keyingi so‘zning bosh tovushiga (asosan, unlisiga) yoki hijosiga qo‘shilib, singib talaffuz qilinadi; (hajr / ila)

Haj ri-la bemor o‘-lan-dan so‘r.

(Fuzuliy)

2. Barmoqda bo‘g‘inlar miqdori muhim sanaladi, miqdoriy o‘lcham birlamchi va intonatsion holatiga ko‘ra turoqlarga bo‘linadi, masalan:

Yu-ra-gim o-qa-di / Far-g‘o-na to-mon, 6+5

Ey, ach-chi-g‘i shi-rin, / gu-mo-ni a-yon, 6+5

Sev-ging-ga i-sho-nib / ya-shay-man ha-mon, 6+5

O‘-zim-ning ho-lim-ga / kul-gim ke-la-di. 6+5

(Mirzo, 2007: 98).

Aruzda hijolarning sifat jihati, cho‘ziq-qisqalik belgisining ahamiyati muhim bo‘lib, vazn talabiga muvofiq tarzda shakllanadi. SHakliy ohangdoshlik mazmuniy yetuklik bilan hamohang bo‘lganda, u san‘at darajasiga ko‘tariladi. Zero, xoh barmoqda bo‘lsin, xoh sarbastda mumtozlikka munosib asarlar yozilishi mumkin – bu shubhasiz. Yozilgan ham. (A‘zamov, 2006: 49).

3. Barmoqda turoqlar – ma‘lum intonatsion bo‘laklar, ya‘ni takt (segmentatsiya asosida yuzaga kelgan birlik)lar mavjud va ular me‘yoriy ritmik ohang asosida, odatda, bir xil shakllanadi.

Masalan:

U bahorni / kutdi intizor, 4+5=9

Yo‘llariga / ko‘z tutdi ilhaq. 4+5=9

Quyosh chiqsa, / erib bitsa qor, 4+5=9

To‘yib - to‘yib / o‘ynardi chillak. 4+5=9

(A‘zim, 1995: 50)

Aruzda ruknlarning sifati va miqdori, o‘zgarish (zihof)ga uchrash- uchramasligi, bahri vaznning muhim shartidir, aruzda turoq bo‘lmaydi, ruknlar chegarasi ikki so‘z orasiga to‘g‘ri kelishi shart emas, so‘z o‘rtasiga ham tushaveradi. Gap shundaki, aruzda she‘r misralari ichida pauza qilinmaydi, balki o‘ziga xos ohang, ta‘bir joiz bo‘lsa, kuy qiroat bilan o‘qiladi (A‘zamov, 2006: 72).

<i>Qa-</i>	<i>ro-</i>	<i>ru</i>	<i>to-</i>	<i>qa-</i>	<i>ti m</i>	<i>ol-</i>	<i>di</i>	<i>ma-</i>	<i>ning</i>	<i>sar-</i>	<i>vi</i>	<i>xi-</i>	<i>ro-</i>	<i>mo-</i>	<i>nim</i>
<i>Ko‘-</i>	<i>zim-</i>	<i>g‘a</i>	<i>jil-</i>	<i>va-</i>	<i>la r</i>	<i>ay-</i>	<i>lab</i>	<i>ni-</i>	<i>go-</i>	<i>rim</i>	<i>dar</i>	<i>za-</i>	<i>mon</i>	<i>kel-</i>	<i>sun</i>
V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–

Jadval 8. Ajab Zamona (Zavqiy, 2003: 46).

Tovushlarning sifatini tekshirish uchun eksperiment o‘tkazishga harakat qildik, natijada ekskursiya va rekursiya oralig‘idagi ampletuda chastotasini vaqt birligi sifatida aniqlash maxsus eksperimental uskunalarini talab qilgani bois, ruknlar oralig‘idagi vaqt birligi bir nafas deb belgilab, shartli ravishda Abdulla A‘zamovning quyidagi qarashlarini asos qilib oldik, aytilganlarni diagramma tarzida quyidagicha tasvirlash muayyan tasavvur beradi (A‘zamov, 2006: 89).

	- cho'ziq hijo, 1 sekund
	- qisqa hijo, ½ sekund
	-bir cho'ziq va bir qisqa hijo, $1 + \frac{1}{2} = 1\frac{1}{2}$ sekund
	- o'ta cho'ziq hijo, $1\frac{1}{4} + \frac{1}{4} = 1\frac{1}{2}$

Ko'rinib turganidek, aruz va barmoq vaznlarining fonetik tuzilishida yaqqol ko'zga tashlanadigan farqlar anchagina va bularning barchasi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Aruz va barmoq vaznlaridagi asarlarning tabiati o'ziga xos tarzda tahlil etilishi shubhasiz, lekin har qanday she'r tizimida ham fonetik birliklar material vazifasini bajarish bilan birga, poetik imkoniyatlari kengligini ko'rsatib turadi. Biz ham aruz ilmining asosiy fonetik qonuniyatlaridan ba'zilarini tilga oldik, biroq bu ilm juda murakkab, qiziq va fonopoetikaning eng muhim tadqiqot ob'ekti sifatida qaraladi. Shuni nazarda tutib aruz fonetikasi tilshunoslikning ham tadqiqot ob'ektiga aylanadi, desak xato bo'lmaydi.

Xulosa qilganda, aruz tizimi ham, barmoq tizimi ham fonetik jihatdan mukammal shakllangan bo'lishi taqozo etiladi:

- aruz tizimida ham barmoqda ham mazmun mukammalligi bilan birga fonetik shakllanish eng muhim unsur sanaladi;
- tovushlarning cho'ziq-qisqa talaffuzi, ba'zan tovush orttirilishi, undosh ko'chishi kuzatiladi;
- aruz tinish belgilarga va boshqa shakllarga emas, qat'iy rukn tartibiga asoslanadi.

ADABIYOTLAR

- A'zamov, A. (2006), *Aruz*, Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti.
- Abdullaev, I. (1963). *Poeziya na arabskom yazike v Buxare pri samanidax (xv. po yatimat addahr as-saalibi)*, Filol. fanlari nomz... diss. Toshkent.
- Fitrat, Abdurauf (1997), *Tanlangan asarlar*, IV-jild, Toshkent: Ma'naviyat.
- Hojiahmedov, A. (1999), *Mumtoz badiiyat malohati*, Toshkent: Sharq.
- Krachkovskiy, I.Yu. (1957), *Izbrannie sochineniya*, Tom 4, Moskva: Izd. Akademii Nauk.
- Mashrab, Boborahim (1990), *Mehribonim qaydasan*, Toshkent: G'afur G'ulom.
- Mirzo, Iqbol (2007), *Sizni kuylayman*, Toshkent: Sharq.
- Navoiy, Alisher (1967), *Me'zon ul-avzon*, 14 tom, Toshkent: Fan.
- Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheraliev, M. (2010), *Adabiyotshunoslik lug'ati*, Toshkent: Akademyashr.
- Tabriziy, Vohid (1959), *Djam-i muxtasar*, IVL., Moskva.
- Talabov, E. (2003), *Arab she'riyatida aruz tizimi*. Filol. fanlari d-ri... diss. avtoref., Toshkent.
- To'ychiev, U. (1973), *Aruzshunoslikka doir*, Toshkent: Fan.
- Zavqiy (2003), *Ajab zamona*, Toshkent: Sharq.
- Ziyovuddinova, M. (2001), *Abu Abdulloh al-Xorazmiyning "Mafotih al-ulum" asarida poetika*, Toshkent: ToshDSHI.

